

**ALLOMA TAFTAZONIY HAYOTI VA IJODI**

**Sodiq Qurbanov**

*Toshkent islom instituti o'qituvchisi.*

Amir Temur Markaziy Osiyo va unga qo'shni bo'lgan yurtlarni birlashtirib, feodal tarqoqlikka barham bergach, Samarqandga tasarruf etilgan barcha mintaqa va viloyatlardan mashhur olim va hunarmandlarni to'play boshlagan<sup>44</sup>. Natijada, tom ma'noda Sharqda ikkinchi renessans davri rivojiga munosib hissa qo'shdi.

Asosiy ilmiy faoliyatini Movarounnarda olib borgan va o'z davrigacha bu diyorda yaratilgan mashhur asarlarga hoshiya va sharhlar yozish bilan mashhur bo'lgan qomusiy olim Sa'duddin Taftazoniy ushbu davr buyuk namoyondaridan biri edi. Uning asarlari qariyb besh asr mobaynida Movarounnahr va unga qo'shni o'lkalardagi madrasalar va boshqa bilim dargohlarida asosiy darslik sifatida o'qitilgan. Ushbu asarlarga mashhur olimlar tomonidan 200 dan ortiq sharh, hoshiyalar va ta'liqlar yozilgani ularning katta ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

Movarounnahr tarixi va unda yashab ijod etgan olimlar hayoti va faoliyati, xususan, Sa'duddin Taftazoniyning boy ilmiy-ma'naviy merosiga oid ma'lumotlar Sharq olimlarining tabaqot, tarojim kabi asarlarida uchraydi. Yoqut Hamaviy (574-626/1179-1229), Shihobuddin Ahmad Asqaloniy (773-852/1371-1449), Abdulhay Laknaviy (1264-1304/1847-1889), Shamsuddin Muhammad Saxoviy (813-902/1482-1479), Jaloluddin Suyutiy (849-911/1445-1505), Xayruddin Zirikliy (1310-1396/1893-1976) kabi tabaqot va biobiografik janrlaridagi asarlarni bitgan olimlar o'z ishlarida Sa'duddin Taftazoniy haqida alohida to'xtalganlar.

Shuningdek, Shantoviy, Abdurrahmon Umayra, Doktor Ibrohim Shamsuddin, Doktor Akmaliddin Ehson o'g'li, Karl Brokkelman, Abdulhusayn Navotiy kabilalar esa o'zlarining qo'lyozma manbalar ilmiy tavsiflari va kataloglariga bag'ishlangan tadqiqotlarida Sa'duddin Taftazoniy hayoti va yozgan asarlariga to'xtalib o'tganlar.

O'zbekistonlik olimlardan o'z tadqiqot va monografiyalarida Sa'duddin Taftazoniy shaxsiyati va ilmiy merosiga murojaat qilgan olimlar qatorida U.Uvatov, S.Oqilov, Sh.Ziyodov, A.Alloqulov kabilarni keltirish mumkin.

<sup>44</sup> Ma'naviyat yulduzlar (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar) / Tuzuvchi: M.Xayrullaev. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. – 180-b.

Shuningdek, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, D.Yusupova, M.Qodirov, N.Nasrullaev kabi mualliflar Taftazoniyning hayoti va ijodiga oid alohida maxsus maqolalar yozganlar<sup>45</sup>.

Olimning to'liq ismi Sa'duddin Mas'ud ibn al-Qozi Faxruddin Umar ibn al-Mavlo al-Azim Burhoniddin Abdulloh ibn al-Imom al-Rabboniy Shams al-Haqq, ad-Din al-Qoriy as-Samarqandiy al-Haraviy at-Taftazoniy al-Xurosoniydir. Ibn hajarning zikr etishicha uning ismi Mas'ud emas, balki Mahmuddir<sup>46</sup>. Allomaning tavallud topgan yili to'g'risida manbalarda ikki xil ma'lumotni uchratish mumkin. Jumladan, ularning birinchisida 722/1322 yilni keltirilgan bo'lib, bu fikrni Sharofuddin Roqimi, Ismoil Bosho al-Bag'dodiy, Muhammad ibn Ali ash-Shavkoni, Shamsuddin Muhammad ibn Abdurahmon as-Saxoviy va boshqalar qo'llab quvvatlagan. Ikkinchisida esa 712/1312 yil keltirilgan bo'lib, uni Xoyruddin Zirikli, Shihobuddin Ahmad ibn Ali ibn Muhammad al-Asqaloniy, Jaloluddin Abdurahmon as-Suyutiy, Shihabuddin Abulfallah Abdulhay ibn Ahmad ibn Muhammad ad-Dimashqiy, Jaloluddin Abul Mahosin Yusuf ibn tug'ro Burda kabi olimlar qo'llaganlar. Olimning vafoti haqida ham manbalarda 787/1385 yil, 789/1387 yil, 791/1389 yil, 792/1390 yil, 793/1391 yil, 794/1392 yil va 796–797/1394–1395 yil kabi turli xil sanalar ko'rsatilgan. Chunonchi, mashhur hanafiy olimlardan Ahmad ibn Mustafa Toshko'prizoda (901–968/1495–1561) Sa'duddin Taftazoniyning taniqli shogirdlaridan biri Fathulloh ibn Abdulloh Sharvoniy Rumi Hanafiy (vaf. 857/1453 y.)dan rivoyat qilgan. Jumladan, Fathulloh Hanafiy Samarqandada ustozining qabrini ziyorat qilganligi va unga olim, xususan uning vafoti haqidagi ma'lumotlar bitilganligiga shohid bo'lganligini aytgan. Allomaning 1322–1390 yillarda yashaganligiga ikkinchi asosli dalil bu – uning «Sharh at-Tasrif al-izziy» nomli asarini o'n olti yoshida, ya'ni 738/1338 yili yozib tugatganidir. Bundan Sa'duddin Taftazoniy 722–792/1322–1390 yillarda yashaganligi ayon bo'ladi<sup>47</sup>

Olimga berilgan nisba u tug'ilgan Taftazon qishlog'i bilan bog'liq. U (hozirgi Turkmaniston, Ashxabod) yaqinidagi qishloqdir<sup>48</sup>. Mashhur muarrix olim Yoqut Hamaviyning ta'kidlashicha, bu shahar, arab musulmon lashkarlari Xurosonga kelganlarida u yerdag'i barcha erkaklar jang qilish uchun shaharni tark etganliklarini va faqat ayollar qolganini ko'rib, bular “niso” (ayollar) ekan, ular bilan urush qilmang deb, ayollarga nisbatan kuch ishlitmagan ekanlar.

<sup>45</sup> Palvanov U. Sa'duddin Tavtazoniy va uning «Sharh al-aqoid an-nasafiya» asari.- T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015.-B.8-10.

<sup>46</sup> Shihobuddin Ahmad ibn Ali Asqaloniy. Ad-Durar al-Komina. – Bayrut: Dor al-jiyil, 1993. – J. IV.

<sup>47</sup> Palvanov U. The Light of Islam, 4-son 2019 yil, 29-bet

<sup>48</sup> Sa'duddin Taftazoniy. Sharh al-aqoid an-nasafiya. Istambul: Maktabat al-Furqon (yili ko'rsatilmagan). – B. 12.

Shu sababdan bu shaharning nomi Niso deb atalgan<sup>49</sup>. Tarixda “nasoiy” nisbasiga ega ko‘plab olimlar o‘tgan. Saraxs bilan Naso orasida ikki kunlik, Marv bilan besh kunlik, Abivard bilan bir va Nishapur bilan olti yo yetti kunlik masofa bo‘lgan. Shahar iqlimi toza va mo‘tadil bo‘lgan<sup>50</sup>.

Olim o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan mashhur ustozlaridan ta’lim olgan. Ulardan Azududdin Abdurahmon Iyjiy (680-756/1281-1355), Ziyouddin Qazviniy (vaf. 780/1378), Qutbuddin Muhammad ibn Muhammad Roziy (694-766/1295-1365), Ahmad Qusiy (vaf. 803/1401), Mavlono Bahouddin Samarqandiy Hanafiy, Nosiruddin Termiziy, Alouddin Sig‘noqiy, Bahouddin Halvoniy kabi bir nechta olimlarning keltirish mumkin. Jumladan, u ustozni Azududdin Iyjiyning dars xalqasida ta’lim olganligi va uning g‘ayritabiyy qobiliyatini mashhur muarrix Shihabuddin Abdulhay Damashqiy ham ta’kidlab o‘tgan<sup>51</sup>.

Allomaning shogirdlari qatorida quyidagilarni keltirish mumkin:

Hisomiddin ibn Ali ibn Muhammad Abivardiyy (vaf. 816/1413 y.), Burhoniddin Haydar ibn Muhammad ibn Ibrohim Sheroyi Xavofiy, Sadr Haraviy nomi bilan mashhur bo‘lgan (vaf. 854/1450 y.), Alouddin Abulhasan Ali ibn Muslihiddin Muso ibn Ibrohim Rumiy Hanafiy (vaf. 841/1437 y. – Qohira), Alouddin Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad Buxoriy Ajamiy Hanafiy (vaf. 816/1413 y.), Haydar ibn Ahmad ibn Ibrohim Abulhasan Rumiy Asl Ajamiy Hanafiy. U Qohirada yashagan va hijriy 854/1450 yilda vafot etgan, Shams al-Karimiy. Uning to‘liq ismi Muhammad ibn Fazlulloh ibn Majd Ahmad (vaf. 861/1457 y.), Fathulloh Sharvoniy. U Fathulloh ibn Abdulloh Sharvoniydir (vaf. 857/1453 y.) va Muhammad ibn Atoulloh ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Mahmud Abu Abduroziy (776-829/1374-1425). U imom al-alloma, shams ad-din nomlari bilan ulug‘langan va qozi al-quzot bo‘lgan<sup>52</sup>.

Manbalarda Sa’duddin Taftazoniyning tafsir nahv, aqida, maoniy, bayon, sarf, usul al-fiqh hamda furu’ al-fiqh (hanafiy va shofiiy), mantiq va boshqa ilm sohalari bo‘yicha 40 dan ortiq asari borligi aniqlanib, ular 12 ta fan yo‘nalishiga qismanlanadi. Ulardan 30 ga yaqin asar bizgacha yetib kelgan. Shulardan mashhulari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin: Sharh al-aqid an-nasafiya, Kitob al-maqosid, Maqosid fi ilm al-kalom (Sharh al-

<sup>49</sup> Shihobiddin abu Abdulloh Yoqt ibn Abdulloh Hamaviy. Mu’jam al-buldon. J. V. Beirut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1419/1998 – B. 281-282.

<sup>50</sup> Sa’duddin Taftazoniy. Sharh al-maqosid. III jildli. / Sharh va hoshiyalar muallifi Doktor Ibrohim Shamsuddin. – Beirut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2001

<sup>51</sup> Shihabuddin Abdulhay ibn Ahmad Damashqiy. Shazarot az-Zahab fi axbor man zahab. – Beirut: Dor ibn Kasir, 1986. – J. VIII. – B. 547-549.

<sup>52</sup> Abu Bakr ibn Ahmad ibn Muhammad ibn amr ibn Qoziy. Tabaqot ash-shofiiy. J. I. – B. 203.

maqosid) yoki Sharh ash-sharh, Sharh al-muxtasar alo kitob muntaho as-savol val-amal fi ilmay al-usul val-jadal, Ni'am as-savobig‘ fi sharh al-kalim an-nabobig‘, Sharh faroiz as-Sirojiya, Sharh fiqh al-Kaydoniy, Zamaxshariyning “Tafsir al-kashshof” tafsiriga yozilgan hoshiya, Sharh at-tasrif al-izziy, Sharh al-mutavval yoki Sharh at-talxis al-mutavval, Ixtisor sharhi talxis al-jome’ al-kabir va boshqalar.

Alloma ta'lif etgan va u orqali mashhur bo'lgan asarlarining aksariga diqqat bilan nazar solinsa sharhlar va hoshiyalardan iborat ekanı ma'lum bo'ladi. Bu esa uni aqliy va naqliy ilmlarda qomusiy olim ekanini bildiradi.

U hayotlik chog'idayoq asarlari dunyoga mashhur bo'lib ulgirgan kam sonli olimlardan edi. Bunga quyidagi hikoyani keltirish mumkin: “Amir Temur o'ta ahmiyatli va foydali ishlaridan biri bo'yicha chopar yubordi. Choparga: “Agar yo'lda otga hojat tushib qolsa, kimni ko'rsang ham otini ol, agar o'g'lim Shohruh bo'lsa ham”, dedi. Chopar u amr qilgan tarafga tezlab jo'nadi. Yo'lda alloma Taftazoniyga duch keldi. U dam olish uchun bir joyga tushgan, otlari chodirning oldiga bog'langan ekan. Chopar o'sha otlardan birini oldi. Alloma Sa'duddin Taftazoniy chodirdan chiqib, uni ushlab oldi. Otni chopardan qaytarib oldi va uni rosa kaltakladi.

Chopar Amir Temurning oldiga qaytib borganida bo'lgan gapni unga aytdi. Shunda Amir Temur qattiq g'azablandi. Ammo birozdan so'ng: ”Agar uning o'rnila o'g'lim bo'lganida, uni qatl qilardim. Lekin qaysi joyga borsam, kitoblari u yerga mening qilichimdan oldin kirib borgan odamniqanday qilibqatl qilaman”, dedi<sup>53</sup>.

---

<sup>53</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad yusuf. Samarqandning sara ulamolari.-Toshkent: Hilol nashr, 2019.-B19.